

O'zbekiston respublikasidagi omonatlarni kafolatlash tizimi to'g'risida axborot

Asosiy shartlar

TBC bank ga (bank nomi)

Bankdagi omonatlar Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlanadi

Omonatlarni kafolatlash asoslari

O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni

Kafolatlash hodisasi

Bankning tugatilishi (yopilishi)

Kafolatlanadigan omonatlar turi

Talab qilib olinmaguncha saqlanadigan omonatlar, shu jumladan bank kartalaridagi mablag'lar, muddatli va jamg'arma omonatlar, shuningdek mazkur omonatlar bo'yicha hisoblangan foizlar

Kompensatsiya miqdori	Bank tugatilganda har bir omonatchiga, omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni inobatga olgan holda, jami to'lanadigan kompensatsiya miqdori 200 000 000 so'mdan oshmaydi
Bir bankda omonatchining bir nechta omonatlari mavjud bo'lgan taqdirda to'lanadigan kompensatsiya miqdori	Omonatning miqdori va valyutasidan qat'i nazar omonatchining ushbu bankdagi va uning filiallaridagi barcha omonatlari hisoblangan foizlar bilan jamlanadi va ular bo'yicha to'lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori 200 000 000 so'mdan oshmaydi
Bir nechta bank tugatilgan holda kompensatsiya miqdori	Bir nechta bank tugatilgan taqdirda, mazkur banklarda omonatlari mavjud bo'lgan omonatchi har bir bank bo'yicha alohida tartibda 200 000 000 so'mdan oshmagan miqdorda kompensatsiya olish huquqiga ega
Kompensatsiya to'lash muddati	Bankni tugatish (yopish) to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran 20 ish kuni mobaynida: • 2026-yil 1-yanvardan boshlab – 15 ish kuni; • 2027-yil 1-yanvardan boshlab – 7 ish kuni.
Kompensatsiya to'lanadigan valyuta	Chet el valyutasida qo'yilgan omonatlar bo'yicha kompensatsiya bank tugatilgan (yopilgan) sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank kursi bo'yicha milliy valyutada (so'mda) to'lanadi
Bog'lanish uchun ma'lumotlar	Omonatlarni kafolatlash agentligining: O'zbekiston Respublikasi, 100027, Toshkent, Qoratosh ko'chasi, 1 (Banklar Assotsiatsiyasi binosi), telefon raqamlari: +998 555 500 500, el.pochta: info@uzoka.uz manzili, veb-sayt manzili: https://fgd.uz/